

2018 yil yanvar-iyun



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-iyun oylarida 621,3 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 131,6 mln. AQSh dollarini va import 489,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi –358,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53,4 foizga oshib, qora va rangli metallar eksporti esa 2,7 foizga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 52,4 mln. AQSh dollarni tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 80,9 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirdorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-iyun oylarida 449,9 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 100,1 mln. AQSh dollarini va import 349,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.





42,9 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 7,3 foizlik natija bilan qayd etildi.


Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (49,3 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.

Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 42,9 foizini mashina va asbob-uskunalar, 22,2 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 10,8 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 49,3 foizni va safarlar xizmati 28,4 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni




2018 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosи -358,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan -68,2 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan -289,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi
quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**


	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiylajmga nisbatan, %</i>
Eksport	131,6	118,7	100
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	64,8	116,4	49,3
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	2,8	85,9	2,1
qora va rangli metallar	6,7	2,7m	5,1
mashina va asbob-uskunalar	9,6	153,4	7,3
xizmatlar	14,3	99,4	10,8
boshqalar	33,5	122,0	25,4
Import	489,7	132,0	100
oziq-ovqat mahsulotlari	74,5	163,5	15,2
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	109,1	106,4	22,2
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,7	118,0	0,4
qora va rangli metallar	43,6	3,2m	8,9
mashina va asbob-uskunalar	210,0	125,9	42,9
xizmatlar	1,4	67,7	0,3
boshqalar	49,4	127,4	10,1

2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 33,2 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 66,8 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.



Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, (foizda)




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 52,4 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142,7 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida

41,5 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 169,7 foizini tashkil qildi), 25,0 foizini mevalar (115,5 foizini), 27,0 foizini uzum (114,5 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 37,9 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (101,9 foizni) tashkil qildi.

Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 17,1 foiz), Rossiya (17,4 foiz), Vietnam (7,9 foiz), Xitoy (9,7 foiz), Turkiya (10,9 foiz), Belarus(5,7 foiz) va Eron (5,4 foiz) Islom Respublikalari hisoblanadi.



Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Tashqi savdo

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 39,8 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishslash eksporti tashkil qildi.



Mevalar
25,0 %



Sabzavotlar
41,5 %



Uzum
27,0 %



Арахис
6,3 %



Qovun va
tarvuzlar
0,2 %

meva-sabzavot mahsulotlari
eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishslash eksporti miqdori 63,6 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 128,6 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 9,5 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 81,1 foizini, sabzavotlar -35,1 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 161,9 foizini), **uzum**-15,4 ming tonnani, **аракис** 3,4 ming tonnani (20,9 martaga), **qovun** va **tarvuz** 192,5 tonnani tashkil qildi.